



THE DYNAMICS OF DIPLOMATIC RELATIONS BETWEEN THE RUSSIAN EMPIRE AND AFGHANISTAN DURING THE PERIOD OF AMIR DOST MUHAMMAD KHAN

D. Z. Boratov

supporting doctoral student

National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Russia, empire, Afghanistan, state, Amir, Dost Muhammad Khan.

Received: 07.11.24

Accepted: 09.11.24

Published: 11.11.24

Abstract: This article examines the specific aspects of the diplomatic relations between the Russian Empire and the countries of Afghanistan. Also, from a scientific point of view, some analyzes of the external factors affecting the diplomatic relations between the two countries were carried out. During the reign of Amir Dost Muhammad Khan, the Afghan government's foreign policy focused on the issue of instability in relations with Russian ambassadors, which is cited in the case of Ambassador N. Khanikov.

AMIR DO‘ST MUHAMMADXON DAVRIDA ROSSIYA IMPERIYASINING AFG‘ONISTON BILAN DIPLOMATIK ALOQALARI DINAMIKASI

D. Z. Boratov

tayanch doktorant

Mirzo Ulugbek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti

Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Rossiya, imperiya, Afg‘oniston, davlat, Amir, Do‘st Muhammadxon.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Rossiya imperiyasi va Afg‘oniston davlatlari o‘rtasida olib borilgan diplomatik aloqalarning o‘ziga xos jihatlari tadqiq etilgan. Shuningdek, ikki davlat o‘rtasidagi elchilik aloqalariga ta’sir etgan tashqi omillar haqida ilmiy niqtai nazardan ayrim tahlillar amalga oshirilgan. Amir Do‘st Muhammadxon hukmronligi davrida Afg‘oniston hukumati tashqi siyosatining rus elchilari bilan o‘zaro aloqalardagi beqarorlik masalasiga alohida

ahamiyat qaratilgan bo'lib, bu N.Xanikov elchiligi misolida keltirib o'tiladi.

ДИНАМИКА ДИПЛОМАТИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ МЕЖДУ РОССИЙСКОЙ ИМПЕРИЕЙ И АФГАНИСТАНОМ В ПЕРИОД ПРАВЛЕНИЯ АМИРА ДОСТ МУХАММАД-ХАНА

Д. З. Боратов

докторант

Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Россия, империя, Афганистан, государство, Амир, Дост Мухаммад-хан.

Аннотация: В данной статье рассматриваются конкретные аспекты дипломатических отношений между Российской империей и странами Афганистана. Также с научной точки зрения был проведен некоторый анализ внешних факторов, влияющих на дипломатические отношения между двумя странами. В период правления Амира Дост Мухаммад-хана внешняя политика афганского правительства была сосредоточена на проблеме нестабильности отношений с российскими послами, о которой говорится в случае с послом Н. Ханиковым.

Asosiy qism

Rossiya imperiyasi va Afg'oniston hududida mavjud bo'lgan davlatlar o'rtasidagi diplomatik aloqalarning vujudga kelish sanasi bir necha asrlarga borib taqalsada, ammo ularning yangi davrda ikki mustaqil davlat sifatidagi o'zaro elchilik aloqalari Peterburg hukumati tomonidan 1837-yilda kapitan P.Vitkevichning Kobulga yuborilishi bilan boshlanadi. XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib bu ikki davlat o'rtasidagi amalga oshirilgan siyosiy aloqalar o'zgaruvchan bo'lib, mazkur holat turli omillar fonida yuz bergan edi. Qolaversa, Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyo davlatlari, xususan, Afg'oniston bilan olib borgan diplomatik munosabatlari mazkur hududdagi inglizlarning ta'siri natijasida o'zgarib borgan. 1839-yil XIX asr 2-yarmidagi Angliyaning Rossiya bilan Markaziy Osiyo masalasidagi raqobati faollasha boshlagan sana hisoblanadi.

Afg'onistonning xorijiy davlatlar xususan, Rossiya imperiyasi bilan diplomatik aloqalarining beqarorligiga asosiy sabablardan biri avvalo ushbu davlat hukmdorlarining olib borgan tashqi va ichki siyosati natijasida yuz bergan. Shuning uchun ham ko'pchilik tadqiqotchilar fikricha, XIX asrning 2-yarmida Afg'oniston Markaziy Osiyodagi diplomatik

aloqalarida passiv aktor hisoblangan. Buyuk Britaniya ta'siri ostida Afg'oniston taxti uchun kurashlarning kuchayishi va hokimyatni egallagan hukmdorlar aynan inglizlar yordamiga tayangan holda o'z siyosiy qudratini mustahkamlashga urinishi ularning tashqi siyosatdagi mustaqilligidan mahrum etgan. Ayniqsa, bu holat birinchi ingliz-Afg'on urushi davrida yaqqol ko'zga tashlanadi. Hokimyatga inglizlar yordami bilan kelgan Shuju ul-mulk tomonidan inglizlar bilan imzolangan 8 banddan iborat shartnomaning asosiy mazmunida Afg'oniston xorijiy davlatlar bilan mustaqil tashqi siyosat yuritish huquqini yo'qotadi. Shuningdek, Angliya armiyasining ta'minoti Afg'on amiri zimmasiga yuklatilishi va buning evaziga ushbu qo'shin mamlakatni chet elliklardan himoya qilishiga kelishuv Shuju ulmulkni nazorat qiluvchi mexanizmni tashkil etilganligini anglatar edi. Ushbu kelishuvning kafolati hisoblangan Shuju ul-mulkning hukmronligi uzoq davom etmasada, keyingi davrda ham Ingliz-Afg'on munosabatlari Afg'onistonning boshqa davlatlar bilan diplomatik aloqalariga salbiy ta'sir o'tkazib kelgan.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga qaramasdan, ushbu davlat XIX asrning 2-yarmida butunlay mustaqil diplomatik aloqalar olib bormagan degan xulosaga kelishga asos bo'lmaydi. Xususan, ayrim tadqiqotchilar fikriga ko'ra, Afg'oniston rivojlanish va salohiyat jihatdan Markaziy Osiyo davlatlaridan ortda qolishiga qaramasdan, o'zining qulay joylashuvi omili sababli diplomatik munosabatlarda faol aktor vazifasini bajargan. Bunga asos sifatida Afg'oniston amirlarining ma'lum davrda o'zlarigacha yurtilgan tashqi siyosatni tubdan isloh qilishga uringanliklari bilan izohlanadi. XIX asrning ikkinchi yarmida Do'st Muhammadxon hukmronligi davridan boshlab Rossiya imperiyasi va Afg'oniston o'rtasidagi elchilik aloqalari yangi boshqichga ko'tariladi. XIX asrning 50-yillariga kelib, Rossiya imperiyasining Afg'onistonga nisbatan qiziqishlarining ortib borishiga yana bir sabab bu turli ekspeditsiyalar orqali Yaqin va O'rta Sharq hududlari haqida aniq ma'lumotlarga ega bo'linganligi hisoblanadi. Masalan, "Военный журнал"ning 1850-yil 1-sonida P.A.Chixachov tomonidan e'lon qilingan "Turk imperiyasi haqida harbiy-statistik ma'lumotlar" deb nomlangan maqola bunga yaqqol misol bo'la oladi. Ya'ni aniq ma'lumotlarga egalik xususiyati Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyodagi faol diplomatik aloqalari uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Do'st Muhammadxon Amudaryoning chap sohilidagi Afg'onistonning tarixiy yerlarini qaytarish siyosatini olib boradi. Masalan, 1855-yil noyabrda Qandahornig egallanishi. Ushbu holat esa xorijiy davlatlar bilan faol tashqi siyosat olib borishni talab qiladi.

Ammo Do'st Muhammadxon hukmdronligi davridagi Rus-Afg'on diplomatiyasiga xos asosiy xususiyat shundan iboratki, amirning inglizlar bilan yaqinlashuvi natijasida Peterburg bilan elchilik aloqalarida passivlik kuzatiladi. Qolaversa, 1855-yil 30-martdagi Afg'oniston va Britaniya o'rtasida imzolangan shartnomadan so'ng Afg'onistonning tashqi siyosatdagi

mustaqilligi yo'qilish sanasi hisoblanadi. Ushbu shartnomaning imzolanishi amir Qandahor hududining o'z mulklariga qo'shib olinishiga nisbatan Angliyaning munosabatini bilish uchun o'z o'g'li G'ulom Xaydarxonni Peshovarga elchi sifatida yuborishilishi bilan bog'liq edi. Inglizlar ushbu jarayonga o'z roziligini berib evaziga 3 banddan iborat Ingliz-Afg'on shartnomasini 1855-yil 30-martda Jamrud shahrida imzolanishiga erishadi. Ushbu shartnomada tomonlar o'rtasida abadiy tinchlik va do'stlik aloqalarining saqlanishi, joriy chegaralar va mulklarning tan olishini kabi kelishuvlar bilan bir qatorda Afg'on amiri tomonidan Angliyaga do'stlik va dushmanlik kayfiyatidagi davlatlarga nisbatan xuddi shu mazmundagi tashqi siyosat yuritish vazifasi ham yuklatilgan edi. Shartnomaning ushbu jihati endilikda Markaziy Osiyo uchun inglizlarning asosiy raqobatchisi hisoblanuvchi Rossiya imperiyasi va Afg'oniston diplomatic aloqalarining passivligiga olib keladi.

Shuningdek, ushbu shartnomada tomonlar bir-birining ichki ishlariga aralashmaslik haqidagi kelishuvning mavjudligi afg'on hukmdorlarining mamlakat siyosiy yaxlitligini saqlab qolish istaklarini qanoatlantiradi, shuning uchun ham tashqi siyosatda yon berishga rozilik beradilar va bu holat SHERALIXON hukmronligi davrida ham ushbu shartnomaga asoslanib tashqi siyosat olib borilishida ko'rinadi. Do'st Muhammadxon hukmronligi davrida Afg'onistonning Angliyaga yaqinlashuviga sabablardan yana biri inglizlar O'rta Sharqdagi siyosiy qarama-qarshiliklarda Kobul manfaatlarini himoya qilishga harakat qilar edi. Masalan, Eronning Hirotga da'volariga chek qo'yilishi va shuningdek, Afg'oniston foydasiga kontributsiya undirilish g'oyasi aynan Angliya hukumati tomonidan ishlab chiqilgan. Bu kabi omillar tabiiyki, ingliz-rus raqobatida Afg'oniston hukmdori tomonidan Angliyaning tanlanganligini anglatadi.

Buyuk Britaniya Afg'oniston hukmdori bilan do'stona munosabatlar o'rnatish orqali ushbu davlatdan Markaziy Osiyoning boshqa hududlariga ham ta'sir o'tkazish yo'lida foydalanishga harakat qila boshladi. Bunda mavjud Buxoro amirligi va Afg'oniston o'rtasidagi hududiy muommo- avvalari Buxoro xonligi tarkibida bo'lgan Amudaryoning chap sohilidagi yerlarga Afg'oniston hukmdori Do'st-Muhammadxonning davogarlik qilishi qulay fursat sifatida qaralgan edi.

Bu o'rinda yana bir jihatni alohida takidlab o'tish lozimki, Rossiya imperiyasining Afg'oniston bilan o'zaro diplomatik aloqalarining mazmuni nafaqat ikki tomon balki bu hudud geopolitikasi uchun bevosita ishtirokchi hisoblangan Buyuk Britaniyaning munosabati ham belgilab berar edi. Jumladan, 1856-yilda Tehronda shu yilning 25-oktabrda forslar tomonidan egallangan Hirot shahri uchun kurashlar boshlanadi. Ushbu vaziyatda Inglizlar yana aralasha boshlaydi. Ammo bu safar ularning aralashuvi juda keng ko'lamli edi. Shu tariqa ingliz-fors urushlari boshlanadi. 1856-yilning 1-noyabr kuni 45 ta kemadan iborat eskadra va 10 000

kishilik ekspeditsiya korpusi for ko'rfazi tomon o'tlanadi. 4-dekabr kuni ushbu qismlar Xarg oroliga joylashib, 10-dekabr kuni Bushir portini egallaydi. Aynan ushbu portga joylashgan inglizlar Sheroz shahriga harbiy harakatlarni boshlaydi. London hukumati o'z yutuqlaridan to'liq qoniqishmagan va shu tufayli ular Erondagi harbiy harakatlarni chuqurlashtirishni istashmagan. Shuningdek bunga yana bir necha sababalar mavjud edi:

1. 1838-1842-yillarda sodir bo'lgan Afg'onistondagi voqealardan to'plangan tajriba;
2. Xitoyda boshlangan harbiy harakatlarga qo'shinning katta qismi safarbar etilishi;
3. 1857-yil 10-kuni Hindistonda boshlangan qo'zg'olon ham ko'p sonli qo'shinni talab qilar edi.

Tomonlar o'rtasidagi harbiy harakatlar tez orada to'xtatildi va 1857-yil 4-mart kuni Parij shahrida tinchlik shartnomasi imzolanadi. Bu shartnomadagi eng muhim jihat Eronning Hirot mustaqil xonlik ekanligini tan olishi edi. Ammo ushbu shartnoma bilangina o'zaro nizolar to'xtab qolmadi. Chunki 1857-yil 26-yanvarda hali urush davom etayotgan bir vaqtda inglizlar tomonidan Afg'oniston amiri bilan Peshovar shartnomasi imzolanadi. Mazkur shartnomaga ko'ra, Do'st Muhammadxon har yili 100 000 rupiya subsidiya olishi ushbu pullarni esa o'z armiyasi va uning tarkibiy qismini takomillashtirish uchun sarflashi lozim edi. Ushbu kelishuvning inglizlar uchun eng muhim jihati shundan iborat ediki, ingliz-afg'on munosabatlari birmuncha iliqlashadi va Hindistonda boshlangan yangi to'liq vaqtda London hukumati uchun birmuncha xotirjamlik olib keladi.

Angliyaning Afg'onistonga nisbatan olib borgan agressiv tashqi siyosati 1857-1859-yillarda Hindistonda bo'lib o'tgan milliy ozodlik harakati bostirilgach o'zining yangi fazasiga kirib boradi. O'z hukmronligini Hindistonda mustahkamlashga erishgan, ingliz hukmron doiralari harbiy qo'shin yordamida Afg'onistonda tahdid qilgan bo'lsa, o'z navbatining siyosiy agentlar faoliyati orqali Buxoro, Xiva, Qo'qon va Sinszyandagi siyosiy jaraonlardan doimiy xabardor bo'lishga erishgan edi. Bu esa endilikda Markaziy Osiyo masalasida Rus-Ingliz raqobatining vujudga kelishi bilan birgalikda Rossiya va Afg'oniston diplomatik aloqalarining faollashuviga bevosita ta'sir o'tkazgan.

Do'st Muhammadxon hukmronligining so'nggi yillariga kelib Rossiya imperiyasi va Afg'oniston o'rtasidagi diplomatik aloqalarining faollashuvi faqatgina amir yuritgan antiingliz siyosati natijasida emas balki bunga ayrim afg'on qabilalarining Angliya hukumatiga qarshi olib borgan kurashlari natijasida ingliz-afg'on munosabatlarining yomonlashuvi ham sabab bo'lgan edi. Xususan, 1855-yilning bahorida ingliz tomonidan 40-yillardayoq egallangan Peshovarning janubida joylashgan Koxat vodiysida yashovchi Miranzoiylar qabilasi inglizlarga qarshi kurash boshlaydi va tez orada ularga sharqiy afg'on qabilalarining eng yiriklaridan biri bo'lgan

Orakzailar ham qo‘shilishadi. Ushbu qabilalar garchi inglizlarning Afg‘onistondagi ta‘sirini batamom yo‘q qila olishmagan bo‘lsada, mahalliy afg‘on qabilalari Angliyaning o‘z mamlakatlaridagi gegemonligidan norozi ekanligini ko‘rsatib bergan edi. Qolaversa, bu kabi ichki siyosiy harakatlar ta‘sirida Do‘st Muhammadxon va uning vorislari Rossiya imperiyasi bilan ham muloqotga kirisha boshlaganliklari ma‘lum. Qolaversa, Qrim urushidan yakunlanishi bilan Rossiya imperiyasi Markaziy Osiyoga nisbatan tashqi siyosatini qayta ko‘rib chiqadi va turli elchilik guruhlarini ushbu hududga yuboriladi. bu jarayonning g‘oyaviy rahbari sifatida esa yangi tayinlangan tashqi ishlar vaziri A.M.Gorchakov ko‘rilgan edi.

Lekin shunga qaramasdan, Do‘st Muhammadxon Angliyaga qarshi ochiqdan-ochiq harakat qilmagan. Bu holat 1857-1858-yillarda Hindistonda yuz bergan qo‘zg‘olon vaqtida Afg‘on amirining qulay fursatdan foydalanib o‘z mamlakatini inglizlar ta‘siridan ozod qilishga urinmaganligida ham ko‘rinadi. Amirning ushbu siyosati sababli, Rossiya imperiyasi bilan elchilik aloqalarining faolligiga salbiy ta‘sir o‘tkazadi. Yuqorida takidlangan xususiyatlar natijasida ushbu davrda Afg‘onistonga yuborilgan elchilik missiyalari o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni to‘laqonli bajarishmagan. Bu kabi elchilik guruhlaridan biri bu N.Xanikov boshchiligidagi diplomatik ekspeditsiya hisoblanadi. Ushbu davrda imperiya tomonidan olib borilgan elchilik aloqalariga jiddiy e‘tibor berilgan bo‘lib, ayniqsa elchilikka rahbar tayinlash birlamchi masala hisoblangan. N.Xanikov 1840-yil sentabrdan boshlab imperiya Tashqi ishlar vazirligi Osiyo departamentida IX darajali tarjimon sifatida ishlagan va Osiyo davlatlari haqida yetarlicha nazariy bilimlarga ega bo‘lgan shuningdek, 1841-yilda Buxoro amirligiga yuborilgan K.F.Butenov boshchiligidagi elchilik tarkibiga ham jalb etilishi mazkur hudud haqida amaliy ko‘nikmalarga erishishga sabab bo‘lgan. Qrim urushidan keyingi davrda Qashg‘ar, Buxoro va Xiva xonliklari singari Afg‘onistonga ham elchilik missiyasi 1857-yilga qadar Tehrondagi imperiya konsuli sifatida ishlagan N.Xanikov boshchiligidagi rasmiylar zimmasiga yuklatiladi.

Diplomatik missiyaga rahbar tayinlash masalasi Rossiya imperiyasi tashqi ishlar vazirligi doirasida belgilanib nomzodning layoqati va tajribasiga alohida ahamiyat qaratilgan edi. N.V.Xanikov Rossiyaning Tabrizdagi konsuli sifatida faoliyati davomida Afg‘onistonga oida ma‘lumotlarni Peterburgga yetkazib turgan. Masalan, inglizlar Eron gazetalarida Qrim urushida Rossiya imperiyasi mag‘lubiyati haqida ma‘lumotlar chop etish orqali Eron hukmdorida antirus kayfiyatini vujudga keltirishga urinishgan edi. Bu holat ko‘rsatadiki, Markaziy Osiyodagi ingliz-rus raqobati keng ko‘lamki va turli diplomatik usullardan foydalanilgan holda kechgan edi. Bu holat N.V.Xanikov diplomatik savodxonligini ko‘rsatadi. O‘z estaliklarida missiya rahbari guruhning birlamchi vazifasi sifatida Afg‘oniston amiri bilan aloqa o‘rnatish masalasi qo‘yilganligini takidlaydi.

Ammo shunga qaramasdan, Missiya guruhining tarkibi XIX asr 2-yarmida Markaziy Osiyoga tashrif buyurgan boshqa diplomatik guruh a'zolari singari turli mutaxassislardan tashkil topgan edi. Jumladan, botanik va vrach sifatida professor A.Bunge, geology-magistr A.Gebel, geograf R.Lensa, taniqli zoolog graf Kayzerling va harbiy-dengizchi kapitan Ristorilar guruhning yetakchi a'zolari hisoblanishgan. Turli mutaxassislardan iborat diplomatik ekspeditsiya zimmasiga yuklatilgan vazifalar ham keng ko'lamli ekanligi o'z aksini topadi.

XIX asrning 50-yillaridagi Rossiya-Afg'oniston elchilik aloqalariga xos xususiyatlardan biri bu tashrif buyurgan rus elchilarining afg'on hududlarida turlicha kutib olinishi edi. Bu holat N.V.Xanikov missiyasida ham ko'zga tashlanadi. Elchilik guruhi a'zolari joylarda xususan Hirotda iliq kutib olinishiga qaramasdan Amir Do'st Muhammadxon ushbu elchilikni Kobulda qabul qilishdan bosh tortadi. Buning asosiy sababi inglizlar bilan kelishuvlarga ko'ra Kobulda qabul qilingan har bir rus elchiligi Angliyaga nisbatan dushmanlik harakati deb baholar edi. Bu esa Do'st Muhammadxonning Peterburg elchilarini qabul qilmasligiga va ushbu missiyaning muvaffaqiyatsiz yakunlanishiga olib keladi. Boshqa tarafdin Do'st Muhammadxon Fors o'lkasi va Hindiston oralig'idagi katta hududda istiqomat qiluvchi barcha xalqlarni o'z hokimiyati ostiga yagona davlat sifatida birlashtirish harakatiga ham kelgusida Rossiya imperiyasi aralashuvi masalasi ham hukmdorni bu davlat bilan munosabatlardan tiyilishga sabab bo'lgan edi.

Ammo Xanikov elchiligining to'liq barbod bo'lganligi haqidagi fikrni ilgari surish ham to'g'ri emas. Chunki elchilik a'zolari siyosiy yutuqlarga erishmagan bo'lsalarda Afg'onistondagi ijtimoiy siyosiy voqealar haqida yetarlicha axborot to'plashga ulgurgan edilar. Qolaversa, inglizlarning hududdagi harakatlari, Markaziy Osiyo davlatlaridan iborat Antirossiya blokini tuzishga harakat qilayotganliklari ham Xanikov elchiligi xulosalariga ko'ra aniqlangan edi.

Qolaversa, XIX asrning 50-yillarida sodir bo'lgan Rossiya-Afg'oniston diplomatik aloqalariga xos umumiy xususiyat sifatida Afg'oniston hukmdorlarining asosan bir yoqlama ya'ni inglizlar bilan yaqinlashishga harakat qilganliklari va tabiiyki, Peterburg bilan faol elchilik aloqalarini olib borilmaganligi qayd etish lozim. Lekin bu holat Afg'oniston masalasida keskinlashgan ingliz-rus raqobatida Peterburgning mag'lubiyati emas balki qarama-qarashilikni yanada kuchayishiga sabab bo'lgan omillashdan biri sifatida baholanadi. Markaziy Osiyo masalasidagi Rus-ingliz raqobatiga va Peterburgning ushbu hudud bilan faol diplomatik aloqalar o'rnatishga urinishiga ta'sir etuvchi omillardan yana biri bu Nasriddinshoh boshqaruvidagi Eronning inglizlar tazyiqida ekanligi hisoblanadi. Rossiya imperiyasining Tehrondagi konsuli N.Anichkov Angliyaning Erondagi ta'siri kuchayishi bilan rus harbiy kemalari uchun Kasbiy dengiziga chiqishda ekskluziv huquqlar bergan Turkmanchoy shartnomasini qayta ko'rib chiqilishiga olib kelishi mumkinligini takidlaydi. Bu esa Rossiya-Markaziy Osiyo diplomatik

aloqalaridagi yana bir o'ziga xoslik ya'ni qo'shni hududlar bilan aloqalarning Markaziy Osiyoda ham aks etishini ko'rsatib beradi.

N.Xanikov elchiligi faoliyati yakunlangach oradan 4 yil o'tib 1863-yil iyun oyida Afg'oniston tarixida "Amiri-i Kabir" nomi bilan qolgan Do'st Muhammadxon Hirot shahrida vafot etadi. Uning vafotidan so'ng o'g'illari o'rtasida taxt uchun kurashlar avj oladi. Oqibatda 1869-yilga kelibgina Sheralixon otasi taxtini egallab uning qo'l ostida bo'lgan barcha hududlarni birlashtiradi. Shu davrdan boshlab Rossiya-Afg'oniston munosabatlari uchun ham yangi davr boshlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Kakar M. H. A Political and Diplomatic History of Afghanistan, 1863-1901. - Leiden: Brill, 2006. - 277 p.
2. Mannonov A.M., Abdullayev N.A., Rashidov R.R. Afg'oniston tarixi. - T.: Barkamol fayz media, 2018. -344 b.
3. Т.В. Рабуш. К вопросу о роли Афганистана как фактора региональной системы международных отношений в XIX веке// Всеобщая история, 2021 121-131 С
4. Айрапетов О. Внешняя политика Российской империи 1801-19014. – М.: Европа, 2006. – 768 с.
5. Бухара и Афганистан в начале 80х годов XIX в. (Журнал ы командирово к Г. А. Арендаренко), -М.: «Наука», 1974.-144 с.
6. Киняпина Н.С., Блиев М.М., Дегоев В.В. Кавказ и Средняя Азия во внешней политике России (вторая половина XVIII - 80-е годы XIX в.). М., 1984. -328 с.
7. Колесников А.А., Харатишвили Г.С. Россия и Афганистан. Миссии. Экспедиции. Путешествия. СПб.: Нестор-История, 2011. -363 с.
8. Коргун В. Г. Россия и Афганистан: исторические пути формирования образа России в Афганистане. – М.: URSS, 2009. - 319 с.
9. Никонов О. А. Политика Российской Империи на Среднем Востоке во второй половине XIX в. / —М/: «Прометей», 2015. -140 с.
10. Робертс Ф.С. Сорок один год в Индии: От субалтерна до главнокомандующаго. Спб., издание Военно-Ученоаго Комитета Главнаго Штаба, 1902. -320 с.
11. Салиев А. А. Религиозный фактор во внутренней и внешней политике Афганистана конца XIX века // Вестник Кыргызско-Российского Славянского университета. 2016. Т. 16. № 12. С. 76–80.
12. Халфин, Н. А. Провал британской агрессии в Афганистане. (XIX в. - начало XX в.) - Москва: Соцэкгиз, 1959. – 192 с.
13. Ханьков Н.В. Экспедиция в Хорасан. – М.: Наука, 1973. –210 с.
14. Юлдашбаева Ф. Из истории Английкий колониальной политики в Афганистане и Средней Азии(70-80-годы 19 века). –Т.: госиздат УзССР, 1963. -192 с.